



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MUSIQIY-ESTETIK  
TARBIYALASH IMKONIYATLARI VA ILMUY NAZARIY ASOSLARI  
(IMKONIYATI CHEKLANGAN TARBIYALANUVCHILAR MISOLIDA)**

**Sattorova Go‘zal Shakur qizi**

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*Musiqa ta`limi va san`at 7- muz 22 -1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim-tarbiya berish asosida ularni intellektual rivojlanirish uchun ta’lim jarayoni subyekti sifatida ularning faollikni shakllantirishga alohida e’tibor berilishi lozim. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida estetik tarbiyaning o‘rni va ahmiyati yorqin misollar orqali keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *estetika, maktabgacha ta’lim tashkiloti, ahmiyat, ta’lim-tarbiya.*

**Аннотация:** Особое внимание следует уделить формированию активности детей как субъекта образовательного процесса по их интеллектуальному развитию на основе обучения и воспитания в дошкольных образовательных организациях. В данной статье на ярких примерах представлена роль и значение эстетического воспитания в организации дошкольного образования.

**Ключевые слова:** эстетика, организация дошкольного образования, значимость, воспитание.

**Abstract:** *Special attention should be paid to the formation of activity of children as a subject of the educational process for their intellectual development on the basis of education and upbringing in preschool educational organizations. In this article, the role and importance of aesthetic education in the organization of preschool education is presented through vivid examples.*

**Key words:** *aesthetics, organization of preschool education, importance, education.*

Hozirgi davrda har bir o‘qituvchi egallashi lozim bo‘lgan eng muhim ko‘nikmalardan biri darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish va o‘tkaza olish ko‘nikmasidir. O‘z tarkibiga ko‘ra bu ko‘nikma anchama murakkabdir. Buning uchun: O‘quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va unga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun avvalo o‘quv - biluv faoliyatdan unumli foydalanish, o‘quvchilarni har bir fan o‘qitilishida pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish mahoratlarini egallab borishlariga erishish zarur. Masalan, dirijyorlik mashg‘ulotlari jarayonida “O‘quvchi treningi”, “Men dirijyor”, “Klaster”, Musiqa nazariyasi fanini o‘tishda “Aqliy hujum”, “Skarabey”, “Bahs - munozara”, “Muloqot”, “Guruh bo‘lib ishslash”, Xor va xorshunoslik asoslari mashg‘ulotlarida “Kichik guruqlar ishslash”, “Individual ishslash”, “Differensial guruhlarga bo‘lish”, “Multimedia texnologiyasi”, “Konsert darsi”, Musiqa tarixi fanini o‘tishda “Muammoli vaziyat”, “Viktorina darsi”, “Savol - javob”, Cholg‘u ijrochiligi darsini o‘qitishda “Kuyni davom ettir”, “Dars sayohat”, “Konkurs darslar” texnologiyalarini qo‘llash va o‘quvchilarni bunday faoliyatga tayyorlab borish mumkin. Pedagogik faoliyatga texnologik jihatdan o‘quvchilarni tayyorlash o‘quvchi o‘quv mashg‘ulotlari davomida

egallagan va amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyotlar davomida mustahkamlab borish lozim bo‘lgan nazariy psixologik, pedagogik va metodik bilimlarni amalda ongli, ishonchli va muvaffaqiyatli qo‘llay olishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Pedagogik qo‘llab-quvvatlash tushunchasining asosiy mazmun-mohiyatini ifodalovchi tayanch iboralardan biri “bolalar muammolaridir”. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim jarayoni oldiga barkamol shaxsning shakllanishi uchun poydevor hosil qilish vazifasi turibdi. Buning uchun yaqin o‘tmishda foydalanilgan an’anaviy o‘lchovlardan qutulish taqozo qilinmoqda. Har bir bola o‘zini jamiyatda erkin his etishi va mikrosotsiumda munosib o‘rin topishi uchun nimalarga e’tibor qaratish lozim?” – degan savollarga javob topish maktabgacha ta’lim pedagogikasining muhim vazifalaridandir. Har bir bolani maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlab, pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali intellektual rivojlantirish, ularning o‘ychan nigohlariga e’tiborsiz bo‘lmaslik, ko‘makka muhtoj bolalarni aniqlash va tezkor yordam ko‘rsatish, ularning o‘zlarini namoyon qila olishlariga ko‘maklashish echimini kutayotgan muhim masalalardandir. Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir. Tarbiya masalalari ta’lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg‘ulotlarda ta’lim berish orqali, ijodiy va qoidali o‘yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlarini, ularning o‘z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, sayrlar o‘tkazish gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ta’lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog‘chasidagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdir. Bolalar bog‘chasing pedagogik jarayonida ta’lim muhim ahamiyat kasb etadi va u kundalik hayotda, o‘yinda, mehnatda, mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi. Bu davrda maktabgacha ta’limda bir qator yangilanishlar amalga oshirilib, uning maqsadlari tubdan yangilandi. Uning bolalarni intellektual rivojlantiruvchi funksiyasi kengayib ta’lim oluvchilarining o‘ziga xosligini hisobga olish ustuvor ahamiyat kasb eta boshladи. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, maktabgacha ta’limning yangi mazmuni ko‘pvariatlilik, uzviylik, bolalarda dastlabki ko‘nikmalar va tasavvurlarni shakllantirish, ularning individual xususiyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bolalarga maktabgacga yosh davrida estetik tarbiya berish boalni har tomonlama insonparvar, ezgulik hissi mujassam, vatanparvar shaxs etib tarbiyalanishida va tabiatga, atrofidagi insonlarda shu jumladan ota-onasiga mehr-muhabbat ham estetik tarbiya orqali beriladi.

Estetik tarbiya - jamiyatda ma’naviy muhitni paydo qilishga ko‘mak beruvchi muhim unsur bo‘lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir. Estetik tarbiyaning vazifalari: kishilarda san’at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o‘zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish; jamiyat a‘zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg‘usini uyg‘otish; tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg‘u bilan munosabatda bo‘lishga va ularni ravnaq toptirish yo‘lida astoydil faoliyat olib borish ko‘nikmalarini hosil qilish; o‘tmish ma’naviy merosimizga hurmat hissini uyg‘otish, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish uchun zamin yaratish; o‘tmish ma’naviy merosimizga hurmat hissini uyg‘otish, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;



yaratish; ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ‘ib qilishga undashdir. Estetik his-tuyg‘u - insonni qurshab turgan muhitdagi ruhiy tuyg‘u paydo qiluvchi go‘zallik va xunuklikni, ulug‘vorlik va pastkashlikni, fojiaviylik va kulgililikni idrok etish va baholash qobiliyatidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim-tarbiya berish asosida ularni intellektual rivojlantirish uchun ta’lim jarayoni sub’ekti sifatida ularning faoliyotni shakllantirishga alohida e’tibor berilishi lozim. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarni qo‘llab-quvvatlash orqali ularni o‘z-o‘zini rivojlantirish va muntazam takomillashtirishga intiluvchi, ta’lim sub’ekti sifatida shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zarur. Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish talab etilmoqda. O‘z navbatida pedagog kadrlarni ham mazkur metodika asosida ishlashga tayyorlash zaruriyati mavjud. Tarbiyalanuvchilarga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish uchun avvalambor pedagog xodimlar yaxshi bilimga ega bo‘lishi lozim. Shundagina biz jamiyatimiz uchun kerakli bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashimiz mumkin albatta. Estetik tarbiyaning maktabgacha yosh davrida berilishi bu bolani yoshligidan tarbiyalsnishi uchun fundamentni shakllantirish demakdir. Bolalarni intellektual rivojlanishlarini qo‘llabquvvatlashda ularning shaxsiyati va o‘zligiga tayanish talab etiladi. Shunga ko‘ra maktabgacha ta’lim-tarbiya paradigmasi o‘zgaradi va maktabgacha ta’limning yangi nazariyasi va amaliyotini tadqiq etishni taqozo qiladi. Bunday nazariya doirasida bolalarning intellektual shakllanishlari va bu sohadagi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning ajralmas tarkibiy qismidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mamedova M. M. TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING O ‘RNI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 7. – C. 1230- 1234.
2. Maftuna M. OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SHAXS XUSUSIYATLARINI SHAKILLANTIRISH //Involta Scientific Journal. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 266-274.
3. Muhidinovna M. M. OILADA MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY XUSUSIYATLARINI SHAKILLANTIRISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 103-107.
4. Muhidinovna M. M. Preschool Education System and Family Cooperation in the Formation of Social Characteristics //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 267-270.
5. Mamedova M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING O‘RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.

6. To'raqulovich J. U., Supxonovna H. N. Ways to shape a healthy lifestyle in the family of preschool children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
7. To'raqulovich J. U., Hikmatovna A. N., Muhammadovna R. S. Theoretical foundations of cooperation between the family and preschool education in the moral and aesthetic development of preschool children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
8. To'raqulovich J. U. Innovative Pedagogical Technologies in a Preschool Educational Institution //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – T. 11. – C. 215-218.